



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**SHERIY TAHLILGA ZAMONAVIY YONDASHUV**

**Qodirova Muhayyoxon Soliyevna**

*filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Qo'qon davlat universiteti*

[qodirova@gmail.com](mailto:qodirova@gmail.com)

*telefon raqam: 916882002*

**Tursunova Ozoda Isroiljon qizi**

*Qo'qon davlat universiteti talaba*

**Annotatsiya:** *Hayotda, jamiyatda ro'y bergan o'zgarish, birinchi galda, adabiyotda bo'y ko'rsatadi. Bu holat, ayniqsa, she'riyatda yorqinroq namoyon bo'ladi. Bugungi she'riyat kechagi she'riyatdan tubdan farq qiladi. Kechagi she'riyat ko'proq ijtimoiylashgan, voqealar zamirida ko'proq hayot ziddiyatlarini ko'rsatgan bo'lsa, bugungi she'riyat o'z nigohini insonning botiniy olamiga qaratdi, uning ruhiy dunyosini, tuyg'ularini ochib berish borasida kishini o'zini o'ziga tanitdi. Bunda u o'ziga xos poetik obrazlardan, ramziy ko'chimlardan foydalandi.*

*Hozirgi o'zbek she'riyatining ma'naviy miqiyosi, badiiy salohiyati sezilarli darajada o'sdi. Bugungi kun she'riyatining tabiati va uning zamiridagi falsafiy g'oyani ochib berish, uning yetakchi hoyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash o'zbek she'riyatining istiqboldagi taraqqiyotini ham oldindan belgilashga imkon beradi.*

**Tayanch tushunchalar:** *istiqlol, adabiyot, ma'naviyat, qadriyat, shaxs erki, tafakkur, she'riyat, xalq, millat, adabiy jarayon, adabiy tanqid, badiiylik mezonlari, milliy g'oya, mafkura, ijtimoiy-siyosiy mavzu, o'zbek she'riyati, tasvir uslublari, yetakchi tamoyillar, taraqqiyot tendensiyalari, xalq og'zaki ijodi ruhi, poyetik obraz va motiv.*

**Аннотация:** *Изменения, произошедшие в жизни и обществе, отражаются, прежде всего, в литературе. Эта ситуация особенно ярко проявляется в поэзии. Сегодняшняя поэзия принципиально отличается от вчерашней. Вчерашняя поэзия была более социализированной, отражала большие жизненных противоречий в основе событий, в то время как сегодняшняя поэзия обратила свой взор к внутреннему миру человека, познакомила человека с самим собой через раскрытие его духовного мира и чувств. При этом она использовала собственные поэтические образы и символические приемы.*

*Духовный масштаб и художественный потенциал современной узбекской поэзии значительно возросли. Раскрытие природы современной поэзии и лежащей в её основе философской идеи, выявление её ведущих идеологических и художественных принципов также позволяет прогнозировать будущее развитие узбекской поэзии.*

**Ключевые слова:** *независимость, литература, духовность, ценность, индивидуальная свобода, мысль, поэзия, народ, нация, литературный процесс,*



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



*литературная критика, критерии художественности, национальная идея, идеология, социально-политическая тематика, узбекская поэзия, изобразительные стили, руководящие принципы, тенденции развития, дух народного устного творчества, поэтический образ и мотив.*

**Abstract:** *The changes that have taken place in life and society are reflected, first of all, in literature. This situation is especially vividly manifested in poetry. Today's poetry is fundamentally different from yesterday's poetry. Yesterday's poetry was more socialized, showed more life contradictions at the heart of events, while today's poetry turned its gaze to the inner world of man, introduced a person to himself in terms of revealing his spiritual world and feelings. In this, it used its own poetic images and symbolic movements.*

*The spiritual scale and artistic potential of current Uzbek poetry have grown significantly. Revealing the nature of today's poetry and the philosophical idea underlying it, identifying its leading ideological and artistic principles also allows us to predict the future development of Uzbek poetry.*

**Key words:** *independence, literature, spirituality, value, individual freedom, thought, poetry, people, nation, literary process, literary criticism, criteria of artistry, national idea, ideology, socio-political theme, Uzbek poetry, pictorial styles, guiding principles, development trends, spirit of folk oral creativity, poetic image and motif.*

Istiqlol butun o'zbek millatini dunyoga, dunyoni esa o'zbekka yaqinlashtirgan bo'lsa, istiqlol she'riyati har bir o'zbekni o'z ko'ngliga yaqinlashtirdi, uning adoqsiz labirintlarini, pirviqor cho'qqilarini, tubsiz teranliklarini, xullas, alohida qalbning naqadar poyonsiz va serqirra ekanligina aks ettirdi. Uning har bir qirrasi olam hodisalari qadar murakkab va jilvagar ekanligini anglatdi. Odamni bilish olamni bilishdan mushkulroq ekanligini ifodaladi. Binobarin, shu xil xossalarga odamning g'oyat mukarram zotligi tuydirildi. Shuning uchun ham bu she'riyat oldingilardan farq qiluvchi bir qator xususiyatlarga ega bo'ldi.

Istiqlol she'riyatining Erkin Vohid, Abdulla Orif, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Tursun Ali, A'zam O'ktam, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbuddin, Eshqobil Shukur, Aziz Said, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro'zimuhammad, Faxriyor, Farida Afro'z, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Benazir singari vakillarining asarlarida olamni poyetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilayotgani namoyon bo'ladi. Istiqlol she'riyatida hissiyot qatlamlarini tadqiq etish, odam ruhiyatidagi boy, olis va rangin iqlimlarni poyetik kashf etishga intilish kuchaydi. Unda ko'ngilni tozalashga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki ko'ngil Alloh maskani ekanligi va uni tozalamay turib, Haq marhamatiga erishish mumkin emasligi anglab yetildi.

Bugungi o'zbek she'riyati o'z taraqqiyotining muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash va dolzarb muammolarni aks ettirishdan ko'ngil manzaralarini chizish va ruhiy holatlarni moddiylashtirish bosqichiga o'sib o'tdi. To'g'ri, bugun ham dolzarb kundalik hodisalariga



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



bag'ishlangan, muhim siyosiy voqealar yoki odam ko'nglining ijtimoiy mohiyati ifodalangan tizmalar yaratilayotir. Lekin aksar hollarda chin she'riyat ko'ngil holatini manzaralashtirish, sezimlar chigalligi va iztiroblar rangini chizish, ranglarning tovushini berishga tutingan. O'zbek she'riyatida Rauf Parfi boshlab bergan bu tasvir yo'nalishi, ifoda yo'sini bugungi kunda asosiy yo'nalishga aylandi, deyish mumkin.

Olamni yangicha his etish samarasi bo'lmish hozirgi o'zbek she'riyatida turg'unlik emas, doimiy o'zgarishlar an'anaga aylanadi. Ya'ni o'zgarishlarning tinimsizligi an'anasi paydo bo'ldi, birovni takrorlamaslikning takrorlanishi qaror topdi va bugunga kelib har bitta chinakam shoir nafaqat birovni, hatto o'zini ham qaytarmaslikka harakat qilayotir. Bu holat bugungi she'riyatning yetakchi belgisiga aylandi. Bugungi o'zbek she'riyati an'anaviy tasvir uslubidan farq qiluvchi yangicha obrazlar, kutilmagan ramziy ifodalar, qochirimlar tazod va parodokslar, eng muhimi, betakror serohang, serma'no ifodalar bilan kitobxonni o'ylantiradi. Fikrning ixcham, lo'nda shaklda ifodalanishi, zamonamiz va zamondoshimiz ruhiy olamini yangi jihatlardan poyetik tadqiq etish – insonning bezovta ruhini, dardlarini tasvirlash borasida erishgan yutuqlari o'zbek she'riyati yangi poyetik sarhadlarni kashf etayotganligidan dalolatdir. Barmoq vaznida yozilgan she'rlardan farq qiluvchi hijo, turoq va qofiyadan uzoq, xalq jonli tiliga yaqin bunday sarbast she'rlar ko'proq nasrga o'xshab kesa-da, badiiy poyetik tili, serma'noliligi, ohangi, so'z qo'llashdagi shoir mahorati ila she'riyatning ochilmagan sarhadlariga kitobxonni yetaklaydi, o'ylatadi, fikrlatadi.

Ilonning o'zidan emas  
shaklidan qo'rqaman  
shamoyili sovuq men uchun  
mabodo mushukka o'xshaganida bormi  
silab-siypalardim ilonni. . . (B.Ro'zimuhammad)

Hayotda muayyan shakl-shamoyilga balki o'z nuqtai-nazariga egalik kimlarnidir cho'chitar, haq so'zni dangal aytuvchilardan ko'pchilik hadiksirar. Agar bunday odamlar daf'atan mo'min-qobil yo muloyim kishiga aylanib qolsalar, hamma «yoqtiradigan» qiyofaga kirishi mumkin. Xo'sh, mo'min-qobillar nima uchun barchaga yoqadi? Shoir «mo'min-qobillik» ortiga yashiringan ma'naviy illatlar haqida o'ylatayotir.

B.Ro'zimuhammad «Soyalar suhbati» nomli she'rida shoir rang obraz va rang ramzdan mahorat bilan foydalangan:

Menga nima bo'ldi uchta soyam bor  
Ikkitasi rangsiz bittasi sariq  
Hiringrab kuladi bir soyam  
Chunki yo'qotib qo'ydim bolaligimni  
Topganim jiyda gulining ifori  
U ham boshqa boqqa o'tib ketgandi...



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



Shoir inson umrining pallalarini soyalarga oʻxshatadi. Ikkita rangsiz soya – bolalik va yigitlik davrini maʼnisiz oʻtkazgan inson umrining soyalari. Sariq rangli soya – qarilik chogʻi oʻz umrini sarhisob etib, oʻz ustidan kulayotgan, yaʼni boʻm-boʻsh hayoti ustidan hukm chiqargan insonning umumlashma obrazi. U hayotda yuksak yo ezgu maqsad uchun yashamagan, ammo qachondir goʻzallikni sevgan. Afsuski, bu goʻzallik ham «boshqa boqqa oʻtib ketgandi».

Keyingi yillarda yaratilgan oʻzbek sheʼriyati namunalarini koʻzdan kechirar ekanmiz, jahon adabiyotiga xos ilgʻor ijodiy anʼanalarni milliy ruhiyat ranglariga yoʻgʻirib ifodalash anʼanalarini ham, yangicha talqin uslubi va yangi shakliy izlanishlarni; anʼanaviy uslubning xilma-xil ifoda koʻrinishlarini ham kuzatish imkoniga ega boʻlamiz.

Bugungi oʻzbek sheʼriyati markazida turgan lirik qahramon zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuygʻularni XXI asr kishisining tafakkur tarzi, ruhiy evrilishlari fonida ifoda etmoqda. Agar istiqlolgacha boʻlgan davr oʻzbek sheʼriyatida lirik qahramon tuygʻulari ifodasi orqali uning qalbini anglashga, poyetik tadqiq-u tahlil qilishga intilish koʻzga tashlansa, keyingi yillarda yaratilayotgan lirika namunalari biz koʻnikkan shakl va uslub chegaralaridan «qalqib chiqib», eʼtiborimizni turfa manzaralar tasviriga qaratmoqda. Lirik qahramon nigohi qadalgan manzara qatiga yashiringan maʼnolarni esa kitobxon oʻz tafakkur tuygʻulari, badiiy-yestetik idroki va fahmi orqali anglab olishi mumkin. Bu xususiyat sheʼriyatning sirli-sehrli va rang-barang inson olamini shoir yoki lirik qahramon qanday anglayotganligini tasvirlashdan oʻsha betakror insonlarning turfa idroklari-yu his-tuygʻulariga, koʻngillariga oʻzlari yoʻl topishlariga undash, insonni anglashga intilishdan uning qalbini oʻziga anglatish tomon qadam tashlanganligidan dalolat beradi. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga xos bu tendensiya qanday ijodiy-yestetik tamoyillarda oʻz aksini topmoqda?

1. Oʻzbek shoirlarining oʻzbek klassik sheʼriyati va xalq ogʻzaki ijodiga xos anʼanalarni davom ettirib, poyetik nutq xususiyatlaridan mohirona foydalanib, ijtimoiy-falsafiy maʼno tashuvchi badiiy umumlashmalarni yaratishga intilishlarida koʻrinadi:

«Xalqim deyman, ruhim tushib,  
Kimlar koʻngling toʻq qildilar  
Ming soʻqiring til topishib,  
Bir uygʻogʻing yoʻq qildilar!»

1. Shoira H. Xudoyberdiyeva qalamiga mansub ushbu sheʼrda muhim ijtimoiy-maʼnaviy illatga kitobxon diqqati tortilgan: qalb koʻzlari ochilmagan, maʼnaviy «koʻrlar» birlashib, el-yurt dardida bedor chinakam fidoyilarni yoʻq qilishga chogʻlanishlarining oʻzi katta fojea! Zero, yaratuvchi, fidoyi Inson darajasini zabt etishi uchun avvalo inson oʻzligini yuksaltirmogʻi, xalq dardi bilan yonib yashaydigan, uygʻoq qalbli boʻlishi kerakki, bunga «qalb koʻzi ochilgan» buyuk insonlargina erisha olganlar. Afsuski, bunday insonlar barmoq bilan sanarli. Isteʼdodsiz, yaratuvchanlik hissidan yiroq, yurt manfaatlaridan oʻz xohish-istaklari-yu manfaatlarini ustun qoʻyuvchi maʼnaviy ojiz, qalb koʻzlari «koʻr» kimsalar esa koʻpchilikni



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



tashkil etadi. Shoira ana shu hayot haqiqatiga ishora qilib, «Ming soʻqiring til topishib, Bir uygʻogʻing yoʻq qildilar», - deya salmoqli poyetik fikrni qisqa, ammo yorqin ifoda qilish mahoratini namoyish qilmoqda.

2. Z. Moʻminova lirikasida «oq ilon», «yomon tush», kabi xalq ogʻzaki ijodiga xos ramzlar; «tushlarning oqishi», «aqlu xush oqigʻi» kabi mubolagʻali tasvirlar, poyetik koʻchimlar, jarangli iboralar, tasviriy vositalardan oʻz oʻrnida foydalanish sanʼati namunalarini koʻplab uchratamiz. Bu xususiyatlar shoira sheʼrlaridan anglashiluvchi poyetik tafakkur tarzining serohangliligi, maʼno tovlanishlari, obrazlilik va poyetik nutq imkoniyatlaridan unumli foydalanish natijasi ekanligi aniq. Bu hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga xos estetik tamoyildir.

3. Hozirgi oʻzbek sheʼriyatida A. Oripov, X. Xudoyberdiyeva, Usmon Azim, Z. Moʻminova, Rauf Parfi, Qutlibeka, Sirojiddin Sayyid, A. Qutbiddin, Faxriyor kabi shoir va shoirlar ijodida poyetik nutq shakllaridan unumli foydalanib, oʻz ichki dunyosini oʻz tili – «men» orqali batafsil va hayajonli tarzda ochib berish tendensiyasi koʻzga tashlanayotir. Bunday monolog sheʼrlarda har bir ijodkorning inson, olam, jamiyat, imon-yeʼtiqod borasidagi oʻziga xos qarashlari badiiy aksini topgan. Mana bir misol:

Dunyo kambagʻalni kamsitib, gʻajib  
Tagʻin boyitarkan boyroqlarini.  
Ruhim olib qoʻyar boshimdan tojni  
Ruhim koʻtaradi bayroqlarini!  
Qaydagi yetimni yetim tishlaydi,  
Dunyo qantarmasa kaj itlarini.  
Ruhim yuragimga qattiq mushtlaydi,  
Ruhim kiya boshlar sovutlarini!

Shoira bunday murojaat monolog orqali dunyoda adolasizlik hukm surar ekan, «men» qalbim daʼvatiga koʻra kurashga otlanaveraman, - degan salmoqli badiiy umumlashmani ifoda etmoqda. Shoir Usmon Azim esa qator sheʼrlarida tasviriy monolog vositasida oʻz ruhiyatini taftish etib, oʻz dunyosidagi iztiroblar mohiyatini taʼsirchan manzaralar tasviri orqali tasvirlash tendensiyasini namoyon etmoqda. Mana bir misol:

Qoʻllarimni qiydi zanjir. Ezgʻiladi boshimni –  
Togʻday qullik yerga egdi - boʻynimdan torta-torta.  
Men haq bildim bu dunyoning katta-kichik toshini,  
Men toshlarga yuzim tutdim yoshimni arta-arta.  
Boʻgʻizlarim achishdi. Ha, oʻpkalarim achishdi.  
Oʻpkam toʻldi odamlarning «Oh»lari toʻla tunga.  
«Havo» dedim, - tomogʻimga qaro qurum yopishdi,  
Necha yilki, men havosiz yashayapman butunlay.  
Sovuq qotdim. Izgʻirinda chirsilladi soʻngagim,  
Tomirlarim – ayozlarda muzlagan qiyoyq hanuz.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



Olov soʻrab, gulxanlarni boʻzlab kezdi yuragim,  
Yongʻinlardan yonib chiqib, quchoqladi meni muz.  
Men – suvsadim. Men - qahradim. Men – xas boʻldim.  
Quridim. . .

Lirik qahramonning erksizlikdagi iztirobli holati, erk suviga tashna daraxt kabi qaqrab qurishi nihoyatda taʼsirchan oʻxshatishlar, jonlantirish, mubolagʻa kabi tasviriy vositalar, oʻz holatini sharhlash usuli orqali ifodalangan. «Men»ning fojiasi erksizligi - «togʻday qullik» ayni chogʻda tosh yuraklarga yuz tutib, dunyoning «katta-kichik toshlarini» haq deb bilganida, ularga ishonch koʻzi bilan qarab, «toshlarga yuz burganida». Bu oʻrinda shoir umumlashma obraz «toshtar» vositasida qalbi ezgu tilak va istaklardan yiroq, hissiz, diydasi «tosh» odamlarni nazarda tutayotir. Bunday odamlar El dardiga dardkash-u, tilaklariga tilakdosh boʻla olmasligini kech anglagan lirik qahramon odamlarning «oh»lari toʻla tunda elu-yurt iztiroblariga hamohang alamli koʻz yoshlarini toʻkmoqda. . .

Hozirgi oʻzbek sheʼriyatiga xos tamoyillardan yana biri shoirlarning poyetik nutqning xitob, murojaat kabi shakllaridan, soʻz takrori, ritorik soʻroq kabi unsurlardan foydalanib, olamni uning bir boʻlagi boʻlmish inson dunyosini poklash orqali munavvar etish haqidagi dunyo olimlari, faylasuf-u shoirlari qarashlariga hamohanglikda yaratilayotgan poyetik gʻoyalari, betakror tashbehlariga yuklangan salmoqli fikr va tuygʻulardan anglashilishini taʼkidlamoqchimiz. Zero, bugungi kunda insoniyatning qiblaga yuz tutayotganligini dunyo tan olmoqdal.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. – T., Yangi asr avlodi, 2006.
- 2.Karimov H. Istiqlol davri nasri. –T.: Zarqalam, 2007.
- 3.Karimov va b. XX asr oʻzbek adabiyoti. T., Oʻqituvchi, 1999.
- 4.Karimov B.Ruhiyat alifbosi. T., Adabiyot va sanat NMU, 2016.
- 5.Mirzayev S. XX asr oʻzbek adabiyoti. T., Yangi asr avlodi, 2005.
- 6.Normatov U. Yangi oʻzbek adabiyoti. Universitet, 2007.